




9 sinf Geometriyadan 1- BSB savollari


1. ABC va $A_1B_1C_1$ uchburchaklar o'xshash. Bu uchburchaklarning mos tomonlari nisbati 3:4 ga teng. Agar ABC uchburchak yuzi $A_1B_1C_1$ uchburchak yuzidan 14 m^2 ga kichik bo'lsa, bu uchburchaklar yuzlarini toping. **(10 ball)**
2. $ABCD$ parallelogrammning CD tomonida E nuqta olingan. AE va BC nurlar F nuqtada kesishadi. Agar $DE = 6 \text{ cm}$, $EC = 2 \text{ cm}$, $BC = 12 \text{ cm}$, $AE = 15 \text{ cm}$ bo'lsa, EF va FC ni toping. **(10 ball)**
3. ABC va $A_1B_1C_1$ uchburchaklarda:
 - $\angle A = \angle A_1$;
 - $\frac{AB}{A_1B_1} = \frac{AC}{A_1C_1} = \frac{3}{5}$

Agar BC tomon B_1C_1 tomondan 8 cm qisqa bo'lsa, BC va B_1C_1 tomonlar uzunliklarini toping. **(10 ball)**

4. Rasmda tasvirlangan shaklda $AD = 13 \text{ cm}$, $DB = 26 \text{ cm}$, $DE = 5 \text{ cm}$, $AC = 36 \text{ cm}$ ekanligi ma'lum bo'lsa, BC , AE va EC kesmalar uzunliklarini toping. **(10 ball)**



5. Rasmda tasvirlangan ABC uchburchak perimetrini toping. Bu yerda, BD – B burchakning bissektrisasi. **(10 ball)**





Baholash mezonl

№	Ball	Javob	Deskriptor
1	10	18 cm^2 va 32 cm^2	1) Uchburchak yuzlari nisbati bilan mos tomonlar nisbatini bog'lay olsa, 2 ball ; 2) Uchburchaklar yuzlarini x va $x + 14$ kabi belgilab olsa, 2 ball ; 3) Belgilashni va bog'lanishni bajara olsa, jami 4 ball ; 4) Belgilash va bog'lanishdan foydalanib tenglama tuza olsa, 6 ball ; 5) Tenglamani yechib, uchburchaklardan birining yuzini to'g'ri topsa, 8 ball ; 6) Ikkala uchburchak yuzini to'g'ri topsa, 10 ball .
2	10	$EF = 5 \text{ cm}$; $FC = 4 \text{ cm}$	1) Masala shartiga mos chizma chiza olsa, 3 ball ; 2) Masala shartiga mos chizma chizib AED va FEC uchburchaklar o'xshashligini keltira olsa 5 ball ; 3) Uchburchaklar o'xshashligidan ularning mos tomonlari nisbatini keltira olsa, 7 ball ; 4) Tomonlar nisbatidan noma'lum tomonlardan birining uzunligini topa olsa, 9 ball ; ikkalasini ham topa olsa, 10 ball .
3	10	$BC = 12 \text{ cm}$ va $B_1C_1 = 20 \text{ cm}$	1) Uchburchaklar o'xshashligini keltira olsa, 2 ball ; 2) Uchburchaklar o'xshashligidan tomonlar nisbatini yoza olsa 4 ball ; 3) BC va B_1C_1 tomonlar uzunliklari uzunliklaridan birini x bilan ikkinchisini $x + 8$ bilan belgilab tenglama tuza olsa, 6 ball ; 4) Tenglamani yechib, tomonlardan birining uzunligini to'g'ri topsa, 8 ball ; ikkalasini ham to'g'ri topsa, 10 ball .
4	10	$BC = 15 \text{ cm}$; $AE = 12 \text{ cm}$; $EC = 24 \text{ cm}$	1) ABC va ADE uchburchaklar o'xshashligini keltira olsa, 2 ball ; 2) Bu uchburchaklar o'xshashligidan tomonlar nisbati tengligini keltira olsa, 5 ball ; 3) Nisbatdan foydalanib, BC va AE kesmalardan birini to'g'ri topsa, 7 ball , ikkalasini ham to'g'ri topsa, 9 ball ; 4) Uchala tomon uzunligini to'g'ri topsa, 10 ball .
5	10	48 cm	1) Burchak bissektrisasi xossasini keltira olsa, 3 ball ; 2) Tomonlar nisbatiga shartda berilgan uzunliklarni to'g'ri qo'ya olsa, 5 ball ; 3) AB kesma uzunligini to'g'ri topsa, 7 ball ; 4) ABC uchburchak perimetrini to'g'ri topsa, 10 ball .
Topshiriqlarni boshqa usullar bilan to'g'ri va to'liq yechgan bo'lsa, bu topshiriq uchun ajratilgan maksimal ballni berish mumkin			
Jami:	50 ball		